QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 1-aprel | 100-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-son farmoyishi ijrosi hamda Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 13-martdagi 121-4-0-Q/25-sonli qarori haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6 - martdagi F-18-sonli farmoyishi hamda Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 13-martdagi 121-4-0-Q/25-sonli qarori ijrosini taʻminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 -, 211 -moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-son farmoyishi hamda Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 13-martdagi 121-4-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyat hokimining qarori bilan:

1-bandiga koʻra:

2025-yil 11-martdan boshlab “Dolzarb bir oylik” safarbarligi (keyingi oʻrinlarda - safarbarlik) eʼlon qilinishi va uning doirasida quyidagi maqsadli koʻrsatkichlar belgilanishi:

a) mahallalarda 29 mingta kichik ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va hunarmandchilik loyihalarini amalga oshirish, zarur qishloq xoʻjaligi texnikasi va asbob-uskunalarni yetkazib berish;

b) aholi xonadonlariga 1,23 million bosh parranda, 24 ming oila asalari va 21 ming bosh qoʻy-echki va qoramol yetkazib berish;

v) 400 ming gektar aholi tomorqalarida hamda 180 ming gektar ijara yer maydonlarida sabzavot, poliz, kartoshka, dukkakli va boshqa serdaromad ekinlarni ekish;

2-bandiga koʻra:

vazirliklar, idoralar va tijorat banklari rahbarlari va ularning oʻrinbosarlari 1-ilovaga muvofiq hudud, tuman va shaharlarga biriktirilganligi, ularga tuman va shahar

hokimliklari, “mahalla yettiligi” va mahalla bankirlari bilan birgalikda quyidagi vazifalar yuklanishi:

a) har bir mahallada yetakchi tadbirkorlarni biriktirish orqali aholi tomorqalarida “Bir mahalla-bir mahsulot” hamda ijara yerlarida “Bir kontur-bir mahsulot” tamoyili asosida serdaromad ekinlar ekilishini tashkil etish;

b) mahallalarni obodonlashtirish, koʻkalamzorlashtirish, ariq va zovurlarni tozalash boʻyicha ommaviy hashar va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

v) “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt koʻchatlari ekilishini tashkil etish, kambagʻal oilalar xonadonlariga ekish uchun mevali daraxtlar koʻchatlarini yetkazib berish;

g) mahallalarda mini-traktor va motokultivatordan foydalangan holda aholi tomorqalarini ekin ekishga tayyorlash ishlarini tashkil etish hamda ularga usta dehqonlar va agronomlarni biriktirish;

d) suv taʼminoti ogʻir boʻlgan 874 ta mahallani sugʻorish tizimi bilan taʼminlash boʻyicha loyihalarni Navroʻz umumxalq bayramiga qadar yakunlash;

e) kambagʻal oilalar aʼzolari hamda ishsiz fuqarolarga moliyaviy koʻmak paketlari (***ixcham issiqxona, parranda, baliq, chorva mollari, asalari qutilari, limon, xurmo va boshqa ekinlarning urugʻ va koʻchatlari***) taqdim etilishini taʼminlashi;

j) mahallalarda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan mikroloyihalarni amalga oshirish choralarini koʻrish;

z) kambagʻal oilalarning ogʻir kasalligi hamda nogironligi boʻlgan aʼzolarining davolanishiga koʻmaklashish, farzandlarini xorijiy tillar va kasb-hunarga oʻqitish inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

3. “Dolzarb bir oylik” safarbarligi davrida amalga oshiriladigan mikroloyihalar ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (T.Mamatqulov) va tuman o’simliklari karantini va himoyasi bo’limi (K.Asadov), bilan birgalikda bir hafta muddatda mahallalarga qulay hududlarda mineral oʻgʻitlar hamda oʻsimliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish vositalarini yetkazib berish boʻyicha savdo nuqtalarini tashkil etsin.

5. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviymaʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari (Sh.Jo’rayev), Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo’limi (U.Ochilov) bilan birgalikda mazkur farmoyishga muvofiq, amalga oshiriladigan ishlarga, mahalla aholisini uyushqoqlik bilan jalb qilsin, Navroʻz umumxalq bayrami arafasida ommaviy hashar va madaniy tadbirlarni tashkil etsin;

- “Nuroniy” jamgʻarmasi, “Vaqf” xayriya jamoat fondi va boshqa jamoat tashkilotlarini jalb qilgan holda muborak Ramazon oyida saxovatpesha fuqarolarning

xayriya va ehsonlarini kambagʻal oilalarning daromadlarini oshirish va mahalla infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga keng jalb qilsin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (H.Nazarov) va tuman hokimining oʻrinbosarlariga aholi tomorqalari va ijara yer maydonlariga oʻz vaqtida yuqori daromadli ekinlar ekilishini taʼminlash boʻyicha shaxsiy masʼuliyat va javobgarlik yuklansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (T.Mamatqulov), tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari - iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshligʻi (H.Nazarov) zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tumani hokimining
2025-yil 1-apreldagi
100-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi davrida oshiriladigan mikroloyihalar

№	Hududlar nomi	Reja (yil yakunig a qadar)	Oilaviy tadbirkorli k dasturi doirasida ajratiladiga n kreditlar	Bog’dorchilik		Parranda		Asalarichilik		Chorvachilik (qo’y-echki, qoramol)		Issiqxona		Asbob-uskuna		Xizmat ko’rsatish		Hunarmandch ilik		Ishlab chiqarish		Boshqalar (baliq, quyon va boshqalar	
				Maydon i (ga)	Sum masi	Bosh soni	Sum masi	Olia soni	Sum masi	Bosh soni	Sum masi	Mayd oni (ga)	Sum masi	Loyih a soni	Sum masi	Loyih a soni	Sum masi	Loyih a soni	Sum masi	Loyih a soni	Sum masi	Loyih a soni	Summas i
1	Koson t	3 120	9,9	12,2	0,6	9 209	0,2	167	0,2	355	2,3	1,2	0,5	50	1,4	89	2,2	43	0,9	22	0,6	58	1,0